



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTINI OSHIRISHDA DAVLATNING MOLIYAVIY YONDASHUVLARI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI

PhD Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0003-2428-4266

e.xojiyev@tsue.uz

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasidagi mavjud tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari – eksportchi korxonalarga moliyaviy yordam ko'rsatish yo'nalishlaridan xalqaro standartlarni joriy qilish va sertifikatlash, xorijiy vakolatli organlarda milliy mahsulotlar va brendlarni (tovar belgilarini) ro'yxatdan o'tkazish, savdo uylarini ochish va saqlash, ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish bilan bog'liq chet eldagi xarajatlarni qoplab berish, ko'rgazma-yarmarka tadbirlarida ishtirok etish va mahalliy mahsulotlar va brendlar bo'yicha raqamli reklama bo'yicha ajratiladigan moliyaviy yordamlarning tahlilini amalga oshirish orqali taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy yordam, eksport, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari, moliyaviy yordam yo'nalishlari, moliyaviy yordam ko'rsatish shartlari.

ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ФИНАНСОВЫЕ ПОДХОДЫ К УВЕЛИЧЕНИЮ ЭКСПОРТА ПЛОДООВОЩНОЙ ПРОДУКЦИИ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

PhD Хожиев Элшод Ёқуб ўғли

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В статье анализируются направления финансовой поддержки, предоставляемой участникам внешнеэкономической деятельности в Республике Узбекистан – экспортным предприятиям. Эти направления включают внедрение международных стандартов и сертификацию, регистрацию национальной продукции и брендов (товарных знаков) в зарубежных уполномоченных органах, открытие и содержание торговых домов, компенсацию расходов, связанных с арендой офисных, торговых и складских помещений за рубежом, участие в выставочно-ярмарочных мероприятиях, а также цифровую рекламу местной продукции и брендов. На основе данного анализа разработаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: финансовая поддержка, экспорт, участники внешнеэкономической деятельности, направления финансовой поддержки, условия предоставления финансовой помощи.

STATE FINANCIAL APPROACHES TO INCREASING THE EXPORT OF FRUIT AND VEGETABLE PRODUCTS: THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

PhD **Khojiev Elshod Yoqub ugli**
Tashkent State University of Economics

Abstract. *This study examines the key directions of financial support mechanisms available to exporting enterprises engaged in foreign economic activities in the Republic of Uzbekistan. These mechanisms encompass the implementation of international standards and certification processes, the registration of national products and brands (trademarks) with foreign regulatory bodies, the establishment and maintenance of trade houses, financial assistance for leasing office, retail, and warehouse spaces abroad, participation in international exhibitions and trade fairs, and the promotion of local products and brands through digital marketing. Based on a comprehensive analysis of these support measures, the study formulates evidence-based proposals and recommendations to enhance the effectiveness of state interventions in facilitating export activities.*

Keywords: *financial support, export, participants in foreign economic activity, directions of financial support, conditions for providing financial assistance.*

Kirish.

Jahon bozorlaridagi raqobat tobora keskinlashib borayotgan sharoitda mahalliy mahsulotlar eksporti hajmini oshirish orqali eksport geografiyasini kengaytirish, yangi bozorlarga kirib borish va an'anaviy bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlash uchun eksport qiluvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltirdi. So'nggi sakkiz yil mobaynida mamlakatimizning tashqi iqtisodiy sohasida tashqi savdo hajmi va eksportni tizimli ravishda jadal oshirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi, xususan, valyuta siyosati liberallashtirildi, ma'muriy-boshqaruv bo'yicha to'siqlar bartaraf etildi, eksport qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlari uchun narxlarni shakllantirish va to'lovning bozor mexanizmi joriy qilindi, davlat tomonidan eksportyor korxonalarga turli yo'nalishlarda moliyaviy yordam ko'rsatish va tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga doimiy e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, eksport salohiyatini oshirish, mahalliy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar eksport geografiyasini kengaytirish, meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtiruvchi fermer va dehqon xo'jaliklari hamda eksport qiluvchi korxonalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Jahonda kuzatilayotgan nobarqaror siyosiy va iqtisodiy vaziyatda tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini yanada rag'batlantirish mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatining muhim ustuvorliklardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Eksportni moliyalashtirish bo'yicha ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu sohada turli yondashuvlar va tajribalar mavjud. Xalqaro miqyosda eksportni moliyalashtirishning nazariy asoslari Adam Smit, David Rikardo kabi klassik iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular xalqaro savdoning erkinligi va davlat aralashuvining cheklanishi tarafdorlari bo'lishgan.

Keyinchalik, iqtisodiy o'sish va rivojlanishga davlatning faol aralashuvi zarurligi to'g'risidagi nazariyalar, xususan, John Maynard Keynes tomonidan ilgari surilgan. Zamonaviy adabiyotlarda eksportni moliyalashtirishda moliyaviy vositalar va mexanizmlarning diversifikatsiyasi muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi.

Naryshkin (2021) "Mahalliy tovar va xizmatlarni tashqi bozorlarda ilgari surish mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi barqaror mavqeini va davlat ichida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi" deb hisoblaydi. "Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan firmalar

eksportni 4% dan 13% gacha ko'paytirishni davom ettirish imkoniyatiga ega" ligi Sergio Kannebley Júnior (2021) ning tadqiqot natijalarida keltirib o'tilgan". Vanja Ćosović, Vesela Vlašković va Budimir Stakić (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotda "Moliyaviy yordam bilan nisbatan qisqa vaqt ichida qishloq xo'jaligi sektori, birinchi navbatda meva-sabzavotchilikda Bosnia va Herzegovinaning savdo balansini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin" ligi tadqiq qilingan.

Pasichnyk, Lomako va Strikhovsky (2022) tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda postmodern davrda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash sanoati faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uni yanada rivojlantirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashning uslubiy qoidalarini shakllantirishga qaratilgan. Belarus Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali oshirishga qaratilgan tadqiqot Mariya Pavlovna va Yelena Aleksandrovna (2018) tomonidan olib borilgan va unda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning eksportni kreditlash, eksportdagi risklarni sug'urtalash va davlat dasturi asosida lizing siyosati kabilar ochib berilgan.

O'zbekistonda eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan qonunchilik hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va hukumat dasturlari ham ushbu mavzu bo'yicha muhim manbalar hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi) tomonidan tayyorlangan hisobotlar va tavsiyalar ham eksportni moliyalashtirish bo'yicha tahliliy materiallar sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni jadvallar va diagrammalar asosida tahlil qilish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil asosida statistik guruhlash, shuningdek ekspert baholash usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda respublikamizda mahsulotlar va xizmatlar eksportini keng ko'lamda rivojlantirish, eksport faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish va soddalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 martdagi "Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashimlarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-126-son qaroriga (2024) qabul qilindi. Ushbu qaror bilan Eksportni rag'batlantirish agentligi hamda Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi negizida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi muassisligida "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tashkil etildi. Uning ustav kapitalidagi davlat ulushini boshqarish funksiyasi ishonchnoma asosida Savdo-sanoat palatasiga berildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga ko'maklashish uchun Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida yuridik shaxs tashkil etmasdan ochiladigan Savdoga ko'maklashish jamg'armasiga yo'naltiradi. Jamg'arma mablag'larini boshqarish huquqi Kompaniyaga berildi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumat Komissiyasining 2024-yil 11-may kunidagi "Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga moliyaviy yordam ko'rsatishning vaqtinchalik tartibi to'g'risida"gi Nizomi (2024) qabul qilinishi natijasida 2024-yilning 1-iyulidan boshlab "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tomonidan eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash choralari tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi asosida taqdim etiladi. Bunday choralar tarkibida – moliyaviy yordam ko'rsatish tadbirlari ham mavjud.

Moliyaviy yordam quyidagi toifadagi korxonalarga ko'rsatiladi.

birinchi toifali korxonalar – barqarorlik reytingida yuqori "AAA", "AA", "A" reytingda bo'lgan murojaat qilingan sanadan oldingi oxirgi 12 oyda:

- eksport qilingan mahsulotlar tarkibida qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi 10 foizdan yuqori bo'lgan;

- kamida 3 ta davlatga, shundan 2 tasi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi va chegaradosh davlatlardan tashqari davlatlarga eksportni amalga oshirgan korxonalar;


ikkinchi toifali korxonalar – barqarorlik reytingida “AAA”, “AA”, “A” reytingda bo'lgan murojaat qilingan sanadan oldingi oxirgi 12 oyda eksport faoliyati bilan shug'ullangan korxonalar;

uchinchi toifali korxonalar – barqarorlik reytingida “BBB”, “BB”, “B” reytingda bo'lgan murojaat qilingan sanadan oldingi oxirgi 12 oyda eksport faoliyati bilan shug'ullangan korxonalar;

to'rtinchi toifali korxonalar – barqarorlik reytingida “AAA”, “AA”, “A” va “BBB”, “BB”, “B” reytingda bo'lgan eksport faoliyatini boshlash istagi bo'lgan korxonalar;

Kompaniya tomonidan eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatishning quyidagi yo'nalishlarida moliyaviy yordam qancha miqdorlarda taqdim etilishini ko'rib chiqamiz.

1) standartlashtirish va sertifikatlashning xalqaro tizimlarini joriy etish yo'nalishida, bir kalendar yilida 5 ta xalqaro sertifikat uchun eksport qiluvchi tashkilotlarning ixtiyoriga ko'ra tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzilib muvofiqlik sertifikatlari olingan holatlarda bitta xalqaro sertifikatni olish bo'yicha:




1-rasm. Xalqaro sertifikat xarajatlarini qoplash shartlari

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, **birinchii toifali korxonalarga** – 100 foiz miqdorda, biroq 15 000 AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

ikkinchi toifali korxonalarga – 80 foiz miqdorda, biroq 13 000 AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

uchinchi toifali korxonalarga – 70 foiz miqdorda, biroq 11 000 AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda eksport qiluvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar qoplab beriladi.

2) xorijiy vakolatli organlarda milliy mahsulotlar va brendlarni (tovar belgilarini) ro'yxatdan o'tkazish yo'nalishida, eksport qiluvchi tashkilotning ixtiyoriga ko'ra tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzilganda:




2-rasm. Xorijiy vakolatli organlarda milliy mahsulotlar va brendlarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha moliyaviy yordam ko'rsatish shartlari

birinchi toifali korxonalarga – 100 foiz miqdorda, biroq bir eksport qiluvchi tashkilot uchun bir kalendar yilida 10 000 AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

ikkinchi toifali korxonalarga – 80 foiz miqdorda, biroq bir eksport qiluvchi tashkilot uchun bir kalendar yilida 8000 AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

uchinchi toifali korxonalarga – 70 foiz miqdorda, biroq bir eksport qiluvchi tashkilot uchun bir kalendar yilida 7000 AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda eksport qiluvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar qoplab beriladi;

3) savdo uylarini ochish va saqlash, ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish bilan bog'liq chet eldagi xarajatlarni qoplab berish yo'nalishida, eksport qiluvchi tashkilotlarning ixtiyoriga ko'ra tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzilganda:



3-rasm. Savdo uylarini ochish va saqlash, ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish bilan bog'liq chet eldagi xarajatlarni qoplab berish shartlari

birinchi toifali korxonalarga – haqiqatdan amalga oshirilgan xarajatlarning 100 foizi miqdorida, lekin 1-jadvalga muvofiq savdo uylari uchun ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish xarajatlari bo'yicha to'lab beriladigan har bir kvadrat metr uchun bir oylik qat'iy miqdorlardan ko'p bo'lmagan miqdorda. Bunda bitta eksport qiluvchi tashkilot uchun bitta xorijiy davlatda jami 500 kvadrat metrgacha bo'lgan maydon hisobiga;

ikkinchi toifali korxonalarga – haqiqatdan amalga oshirilgan xarajatlarning 80 foizi miqdorida, lekin 1-jadvalga muvofiq savdo uylari uchun ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish xarajatlari bo'yicha to'lab beriladigan har bir kvadrat metr uchun bir oylik qat'iy miqdorlardan ko'p bo'lmagan miqdorda. Bunda bitta eksport qiluvchi tashkilot uchun bitta xorijiy davlatda jami 500 kvadrat metrgacha bo'lgan maydon hisobiga;

uchinchi toifali korxonalarga – haqiqatdan amalga oshirilgan xarajatlarning 70 foizi miqdorida, lekin 1-jadvalga muvofiq savdo uylari uchun ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish xarajatlari bo'yicha to'lab beriladigan har bir kvadrat metr uchun bir oylik qat'iy miqdorlardan ko'p bo'lmagan miqdorda. Bunda bitta eksport qiluvchi tashkilot uchun bitta xorijiy davlatda jami 500 kvadrat metrgacha bo'lgan maydon hisobiga;

1-jadval

Savdo uylari uchun ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish xarajatlari bo'yicha davlat tomonidan to'lab beriladigan bir oylik qat'iy miqdorlar tahlili

1 m² uchun AQSh dollarida

Xarajat nomi	Qo' shni davlatlar	Rossiya Federatsiyasi	Kavkaz davlatlari (Ozarbayjon, Armaniston, Gruzija), Belarusiya, Ukraina, Moldova va Turkiya	Osiyo qit'asi		Yevropa qit' asi	Amerika qit' asi	Afrika qit' asi	Boshqalar (Avstraliya va orol davlatlar)
				Yaqin Sharq va boshqa Osiyo davlatlari	Osiyo-Tinch okeani davlatlari				
Ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish xarajatlari*	6	20	8	8	26	31	26	6	26

4) ko'rgazma-yarmarka tadbirlarida ishtirok etish yo'nalishida:


a) Kompaniya tomonidan eksport faoliyatini amalga oshirayotgan va (yoki) uni boshlash istagidagi barcha tadbirkorlik subyektlari, shu bilan birga, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun O'zbekistonning yagona milliy stendi tashkil qilingan holatlarda (eksport qiluvchi tashkilotlar alohida o'zi ishtirok etgan holatlardan tashqari) – 100 foiz miqdorda Kompaniyaning haqiqiy xarajatlari bo'yicha cheklanmagan miqdorda. Bunda O'zbekistonning yagona milliy stendi tashkil qilinadigan ko'rgazmalar Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan holda kamida 5 ta tadbirkorlik subyekti ishtiroki ta'minlanadigan ko'rgazmalarda ishtirok etish uchun moliyaviy yordam ko'rsatiladi;

b) eksport qiluvchi tashkilotlar alohida o'zi ijaraga olgan maydonda qatnashgan holatlarda:

birinchi toifali korxonalarga – 100 foiz miqdorda;

ikkinchi toifali korxonalarga – 80 foiz miqdorda;

uchinchi toifali korxonalarga – 70 foiz miqdorda, lekin 2-jadvalga muvofiq tarmoq korxonalari uchun bitta ko'rgazma bo'yicha qat'iy belgilangan ko'rgazma maydoni hisobidan kelib chiqib, eksport qiluvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlari qoplab beriladi;




4-rasm. Ko'rgazmada ishtirok etish uchun ko'rsatiladigan moliyaviy yordam miqdori

2-jadval

Eksportchi korxonalarga ko'rgazma maydonini ijaraga olish xarajatlari bo'yicha to'lab beriladigan qat'iy miqdorlar tahlili

T/r	Tarmoqlar*	Ko'rgazma maydoni (m ²) (bitta ko'rgazma doirasida)
1.	To'qimachilik, tikuv-trikotaj va gilamchilik sanoati korxonalariga	9
2.	Qishloq xo'jaligi korxonalariga	
3.	Oziq-ovqat sanoati korxonalariga	
4.	Hunarmandchilik subyektlariga	
5.	Mebel va yog'ochsozlik sanoati korxonalariga	20
6.	Charm-poyabzal va mo'ynachilik sanoati korxonalariga	9
7.	Elektrotexnika sanoati korxonalariga	16
8.	Yog'-moy sanoati korxonalariga	9
9.	Qurilish materiallari sanoati korxonalariga	16
10.	Zargarlik sanoati korxonalariga	9
11.	Parrandachilik sanoati korxonalariga	
12.	Baliqchilik sanoati korxonalariga	
13.	Gulchilik sanoati korxonalariga	
14.	Asalarichilik sanoati korxonalariga	
15.	Ipakchilik sanoati korxonalariga	

5) mahalliy mahsulotlar (xizmatlar) va brendlar (tovar belgilari) bo'yicha raqamli reklamani xorijiy internet jahon tarmog'i axborot resurslarida, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, savdo maydonchalari va mobil ilovalarda joylashtirish yo'nalishida:



5-rasm. Mahalliy mahsulotlar va brendlar bo'yicha raqamli reklama bo'yicha ajratiladigan moliyaviy yordam miqdori

a) to'lovlar Kompaniya tomonidan tuziladigan shartnomalarga asosan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchi tegishli tashkilotlarga to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan holatlarda:

eksport faoliyatini amalga oshirayotgan va (yoki) uni boshlash istagidagi barcha tadbirkorlik subyektlari, shu bilan birga, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun – 100 foiz miqdorda, lekin bir eksport qiluvchi tashkilot uchun bir kalendar yilida 20 000 AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

b) eksport qiluvchi tashkilotlarning ixtiyoriga ko'ra tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzilib, reklama joylashtirilgan holatlarda:

birinchi toifali korxonalarga – 100 foiz miqdorda, lekin bir eksport qiluvchi tashkilot uchun bir kalendar yilida 15 000 AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

ikkinchi toifali korxonalarga – 80 foiz miqdorda, lekin bir eksport qiluvchi tashkilot uchun bir kalendar yilida 10 000 AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

uchinchi toifali korxonalarga – 70 foiz miqdorda, lekin bir eksport qiluvchi tashkilot uchun bir kalendar yilida 8 000 AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda eksport qiluvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar qoplab beriladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonning meva-sabzavot mahsulotlari eksportini oshirishda davlat tomonidan qo'llanilayotgan moliyaviy yondashuvlar samarali ekani aniqlangan. Xususan, so'nggi yillarda eksport faoliyatini rag'batlantirish maqsadida bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi: valyuta siyosati liberallashtirildi, eksport qiluvchi korxonalar uchun imtiyozli kreditlar ajratildi, sertifikatlash va standartlashtirish xarajatlari davlat tomonidan qoplandi, eksport bozorlari kengaytirildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy yordamlar korxonalarning eksport hajmini oshirishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, ushbu moliyaviy mexanizmlarning samaradorligini oshirish uchun ajratilayotgan

mablag'larning maqsadli taqsimlanishi, ularning real natijalarga ta'siri va barqaror monitoring tizimining joriy qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, davlat tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor – belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxslar hamda hunarmandlarga ham moliyaviy yordam ko'rsatilishining huquqiy asoslarini yaratishmeva-sabzavot mahsulotlari eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

International Trade Centre (2016). Investing in Trade Promotion Generates Revenue - A study of Trade Promotion Organizations. International Trade Centre, Geneva, Switzerland.

Naryshkin A.A. (2021) Financial and Non-Financial Support of Export. MGIMO Review of International Relations 14(2):72-91.

Nizom (2024) O'zbekiston Respublikasi Hukumat Komissiyasining 2024-yil 11-maydagi "Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga moliyaviy yordam ko'rsatishning vaqtinchalik tartibi to'g'risida"gi Nizomi.

Pasichnyk V., Lomako E.P. va Strikhovsky D.M. (2022) The Methodological Provisions of Financial Regulation of the Development of the Processing Fruit and Vegetable Industry. Business Inform 1(528):365-372.

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 826-son qarori.

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-martdagi "Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-126-son qarori.

Sergio Kannebley Júnior, Diogo de Prince, Rodrigo Baggi Prieto Alvarez (2021) State export financial support of brazilian manufactured products: a microeconomic analysis. Pesquisa e Planejamento Econômico. DOI: 10.38116/ppp59art2.

Yig'ilish (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida "2024-yilda investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar" yuzasidan o'tkazilgan yig'ilish. 2024-yil 18-yanvar.

Самоховец Мария Павловна, Гречишкина Елена Александровна (2018) Financial support for export of agricultural products in the Republic of Belarus. Электронный периодический научный журнал №54 (февраль) 2018. 89-93 стр.

Хожиев Э.Ё. (2023) "Ўрик маҳсулотлари экспортини оширишда маркетинг тадқиқотларидан фойдаланишни такомиллаштириш" мавзусидаги иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. Тошкент. 70-71 б.